

“KELAJAK SOATI” O‘QUV DASTURI

KIRISH

“Kelajak soati” umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy va raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan tizimli tarbiyaviy mashg‘ulotlar majmuasidir. Konsepsiyada “Kelajak soati”ning asosiy maqsadi yuksak ma’naviyat, mustaqil tafakkur, milliy o‘zlik, Vatanga daxldorlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish bilan belgilangan.

Maqsadi

O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy va raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash hamda kelajakka mas’uliyatli munosabatni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Vazifalari

1. O‘quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va fuqarolik daxldorligini shakllantirish.
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni kuchaytirish.
3. Ilm-ma’rifat, kitobxonlik, mehnat va kasbga qiziqishni rivojlantirish.
4. Huquqiy madaniyat va xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish.
5. O‘quvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish.
6. Raqamli muhitda xavfsiz va mas’uliyatli harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
7. O‘quvchilarning muloqot, hamkorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faolligini oshirish.

Kutilayotgan natijalar

1. Mustaqil va tanqidiy fikrlash - axborot va dalillarni tahlil qiladi, turli nuqtai nazarlarni taqqoslaydi, mustaqil xulosa chiqaradi va asoslangan qaror qabul qiladi.
2. Samarali muloqot - o‘z fikrini aniq, mantiqiy va madaniyatli ifodalaydi, savol beradi, faol tinglaydi va boshqalarning fikrini hurmat qiladi.
3. Hamkorlik - jamoada ishlaydi, umumiy maqsadni belgilaydi, vazifalarni taqsimlaydi va jamoaviy natija uchun shaxsiy mas’uliyatni his qiladi.
4. Ijodkorlik va innovatsion fikrlash - yangi g‘oyalar ilgari suradi, mavjud muammolarga turlicha yondashadi va amaliy yechimlar ishlab chiqadi.
5. Muammoni hal qilish va qaror qabul qilish - hayotiy va ijtimoiy vaziyatlarni baholaydi, muqobil yechimlarni tahlil qiladi va mas’uliyatli qaror qabul qiladi.
6. Axborot va raqamli savodxonlik - axborotni izlaydi, saralaydi, ishonchliligini baholaydi va raqamli texnologiyalardan xavfsiz hamda mas’uliyatli foydalanadi.
7. Fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlik - Vatan, xalq, milliy qadriyatlar va madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, jamiyat hayotida faol va mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi.
8. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar - o‘z his-tuyg‘ularini boshqaradi, boshqalarning holatini tushunadi, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, adolat va insonparvarlik tamoyillariga amal qiladi.
9. O‘zini anglash va uzluksiz rivojlanish - o‘z qobiliyati va qiziqishlarini anglaydi, maqsad qo‘yadi, o‘z faoliyatini tahlil qiladi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.

10. Mas’uliyatli amal va tashabbuskorlik - olgan bilim va shakllangan qadriyatlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llaydi, tashabbus ko‘rsatadi, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etadi va o‘z qarorlari hamda xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qiladi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etish modeli

“Kelajak soati”ning har bir 4 soatlik mavzusi o‘quvchining bilimni egallashi, unga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirishi, o‘zlashtirilgan bilim va qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llashi hamda faoliyatini tahlil qilishi tamoyili asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Har bir 4 soatlik mavzu **“Bilish – Munosabat – Amal – Refleksiya”** modeli asosida amalga oshiriladi.

1-soat – Bilish. Savol, hikoya, rasm, video, kuzatish va boshqa manbalar orqali mavzuni anglash, asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniqlash, savollar berish hamda dastlabki xulosalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

2-soat – Munosabat. Oila a‘zolari, do‘stlar, tengdoshlar va yaqinlar bilan suhbatlashish, fikr almashish, o‘z fikri va hayotiy tajribasini boshqalarning qarashlari bilan taqqoslash, turli nuqtai nazarlarni tinglash va ularga munosabat bildirishga qaratiladi.

3-soat – Amal. Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish, ijodiy topshiriq bajarish, kichik loyiha, amaliy ish yoki volontyorlik faoliyatida ishtirok etish orqali olingan bilim va shakllangan qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiriladi.

4-soat – Refleksiya. Bajarilgan ish natijasini taqdim etish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash, nimani o‘rganganini aniqlash hamda “Mening keyingi qadamim” mazmunida shaxsiy xulosa va kelgusidagi harakatlarini ifodalashga yo‘naltiriladi.

Mazkur model o‘quvchini mavzuni faqat tinglovchi sifatida emas, balki bilimni egallovchi, fikrlovchi, munosabat bildiruvchi, amalda qo‘llovchi va o‘z faoliyatini baholovchi faol subyekt sifatida ishtirok etishga imkon beradi.

Ajratilgan soat va mashg‘ulot vaqti

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari Konsepsiyaga muvofiq haftasiga 1 akademik soat - 45 daqiqa davomida tashkil etiladi.

1-4, 5-8 va 9-11-sinflar uchun o‘quv dasturida belgilangan umumiy soat hajmi 34 soatni tashkil etadi. Mashg‘ulotlar o‘quv yili davomida tasdiqlangan taqvim-mavzu reja asosida tashkil etiladi.

Dasturga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

“Kelajak soati” o‘quv dasturining yagona maqsadi, ustuvor vazifalari, tayanch mazmuni va kutilayotgan natijalarini saqlagan holda, ta’lim muassasasining pedagogik sharoiti, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, hududiy ehtiyojlari hamda dolzarb tarbiyaviy masalalardan kelib chiqib, pedagogik kengash qarori asosida dastur mazmuniga 15 % gacha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin. Bu o‘zgartirish moslashtirish doirasida mahalliy materiallar, hayotiy misollar, keyslar, ijodiy topshiriqlar, qo‘shimcha amaliy faoliyatlar va dolzarb tarbiyaviy mavzular kiritilishi mumkin. Bunda dasturning asosiy maqsadi, ustuvor vazifalari, tayanch mazmuni va kutilayotgan natijalari o‘zgarmasligi shart.

Konsepsiyada ham “Kelajak soati” mazmunini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va hayotiy ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv hamda amaliy metodlardan foydalanish zarurligi belgilangan.

Dasturning yakuniy pedagogik natijasi - o‘z Vatani va jamiyatiga daxldorligini anglaydigan, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ko‘nikmalarga

ega, mas’uliyatli qaror qabul qila oladigan va o‘z bilim hamda salohiyatini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida qo‘llaydigan faol shaxsni shakllantirishdan iborat.

9–11-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING YILLIK O‘QUV REJASI

№	O‘quv mavzulari nomlanishi	Oylar	Soat
1	“Yagona vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”	Sentabr	4
2	Ustozga ehtirom - millatga ehtirom!	Oktabr	4
3	Mustaqillik timsollari - milliy g‘urur va o‘zligimiz!	Noyabr	4
4	Huquqiy madaniyat - xavfsiz kelajak	Dekabr	4
5	Jasorat - Vatan himoyasi burchimiz	Yanvar	3
6	Buyuk ajdodlar merosi - ma’naviy tayanchimiz	Fevral	4
7	Qadriyatlar bebaho, ma’naviy xazinadir	Mart	3
8	Ajdodlar merosi - avlodlar iftihori va istiqboli	Aprel	4
9	O‘tmishdan saboq - xotiraga ehtirom	May	4
	Jami:		34

9–11-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING OYLAR KESIMIDA TAQVIM MAVZULAR REJASI

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Sentabr (4 soat)	Vatan, millat va davlatchilik	“Yagona vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” mavzusida darsni ishlanmasi, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: “Mening oilam - Vatanimning bir boʻlagi” mavzusini muhokama qilindi, olingan xulosalarni maktabda tahlil qilindi.	Loyiha ishi: “Yagona Vatan - yagona xalq” - ushbu gʻoyaning mazmunini ochib beruvchi poster, infografika yoki raqamli taqdimot yaratish.	Insho: “Yangi Oʻzbekiston – yangi yutuqlar maskani” mavzusida qisqa esse yozish
Oktabr (4 soat)	Ilm, maʼrifat va kasbiy yoʻnalish	“Ustozga ehtirom- millatga ehtirom” mavzusida darsni ishlanma, video kontent, va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: “Ziyo tarqatuvchi kasb sohiblari” mavzusida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “Ustoz va zamonaviy texnologiyalar” - sunʼiy intellekt, internet va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ustozning vazifasi qanday oʻzgarishi mumkinligi haqida fikr-mulohaza yoki podkast ssenariysi tayyorlash.	Insho: “Ustoz vatan taraqqiyotining buyuk bunyodkori” mavzusida qisqa esse yozish
Noyabr (4 soat)	Mustaqillik timsollari	“Mustaqillik timsollari - milliy gʻurur va oʻzligimiz” mavzusida darsni ishlanmasi, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: “Mustaqillik timsollari milliy gʻurur va oʻzligimiz” mavzusida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani dars jarayonida davom ettirish	Loyiha ishi: “Agar men dizayner boʻlsam...” - Oʻzbekistonning milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ramziy kompozitsiya yarating va undagi har bir elementni asoslash.	Insho: “Timsollarda aks etgan buyuk tarix” mavzusida qisqa esse yozish
Dekabr (4 soat)	Huquqiy madaniyat va xavfsizlik	“Huquqiy madaniyat - xavfsiz kelajak” mavzusida darsni ishlanma, video-kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish	Oilada: “Raqamli dunyoda xavfsiz kelajak” (Kibermadaniyat) mavzusini oila davrasida muhokama qilish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “Huquqiy vaziyat” - maktab, jamoat joyi yoki internetdagi huquqiy vaziyatga huquqiy yechim taklif qilish.	Insho: “Huquqim himoyam -burchim maʼsulyatim” mavzusida qisqa esse yozish
Yanvar (3 soat)	Vatan himoyasi va mardlik	“Jasorat - Vatan himoyasi burchimiz” mavzusida darsni ishlanma, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish	Oilada: “Tinchlik - eng buyuk neʼmat va masʼuliyat” mavzusida oila davrasida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “14-yanvar: jasorat sabogʻi” - Vatan himoyachilari kunining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ochib beruvchi videorolik, podkast, plakat yoki taqdimot tayyorlash.	Insho: “Vatanni asrash har bir insonni burchi” mavzusida qisqa esse yozish

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Fevral (4 soat)	Ajdodlar merosida axloq va odob tarbiyasi	“Buyuk ajdodlar merosi – maʼnaviy tayanchimiz” mavzusida darsnini ishlanma, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish	Oilada: “Buyuk ajdodlar merosi - maʼnaviy tayanchimiz” mavzusida oila davrasida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “Ajdodlar merosi - raqamli makonda” - Navoiy yoki Bobur hayoti va ijodini yoshlar orasida targʻib qilish uchun ijtimoiy tarmoq posti, raqamli poster, podkast yoki qisqa videorolik konsepsiyasini ishlab chiqish	Insho: “Ajdodimdan olgan sabogʻim” - Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Bobur fazilatlari haqida qisqa esse yozish
Mart (3 soat)	Milliy oʻzlik va madaniy meros	“Qadriyatlar bebaho, maʼnaviy xazinadir” mavzusida darsnini ishlanma, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish	Oilada: “Qadriyatlar bebaho, maʼnaviy xazinadir” mavzusida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “Navroʻz - yangilanish ramzi” - Navroʻzning yangilanish, ezgulik va hamjihatlik gʻoyalarini aks ettiruvchi kreativ poster, infografika yoki kollaj yaratish	Insho: “Qadriyatlar mening hayotimda” mavzusida qisqa esse yozish
Aprel (4 soat)	Buyuk ajdodlar -milliy faxrimiz	“Ajdodlar merosi - avlodlar iftihori va istiqboli” mavzusida darsnini ishlanma, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish	Oilada: “Ajdodlar namunasi - eng oliy tarbiya” mavzusida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “Ajdodlar - innovatsiya manbai” - mavzusida ajdodlarimizning ilmiy yoki texnik gʻoyalaridan birini tanlab, uni zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirish mumkinligini tasklif etish	Insho: “Meros va mening kelajagim” mavzusida ajdodlardan qolgan merosni bugungi faoliyat bilan bogʻlagan holda kichik esse yozish
May (4 soat)	Xotira va qadrlash - insoniylik mezon	“Oʻtmishdan saboq - xotiraga ehtirom” mavzusida darsnini ishlanma, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish	Oilada: “Xotira -muqaddas, qadr - abadiy” mavzusida oila davrasida fikr almashish, soʻng darsda oʻsha muhokamani davom ettirish	Loyiha ishi: “Xotira bizga nimani oʻrgatadi” mavzusida katta avlod vakillari bilan suhbat oʻtkazgan holda intervyu tayyorlash	Insho: “Qalbimizda yashayotgan qahramonlar” mavzusida qisqa esse yozish

9-11-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING O‘QUV DASTURI MAZMUNI

1-mavzu. “Yagona vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi, uning tarixiy ahamiyati va mamlakatimiz taraqqiyotidagi o‘rni haqida tushuncha berish. Mustaqillikning davlat va xalqning o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilashi, milliy qadriyatlar, til, madaniyat va an‘analarni asrash hamda rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog‘liqligini anglatish. “Yagona Vatan, yagona xalq” g‘oyasining mazmun-mohiyatini ochib berish. O‘zbekistonni yagona Vatan sifatida qadrlash, turli millat va elat vakillarining tinch-totuvligi, o‘zaro hurmati va hamjihatligi mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili ekanini tushuntirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan bunyodkorlik va taraqqiyot jarayonlari, talim, fan, madaniyat, sport, texnologiya va boshqa sohalardagi imkoniyatlar haqida tahliliy fikr yuritish. Mamlakat kelajagi yoshlarning bilim, salohiyat, tashabbus va mas‘uliyatiga bevosita bog‘liqligini anglatish. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasining mazmuni, tarixiy va ma‘naviy ahamiyatini anglash, davlat ramzlariga hurmat va mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirish. Yoshlarning Vatan oldidagi fuqarolik mas‘uliyatini anglash: sifatli ta‘lim olish, zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarni egallash, qonunlarga rioya qilish, tashabbus ko‘rsatish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish, atrof-muhitni asrash va jamoat manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish. “Yangi hayot va kelajak yaratamiz” g‘oyasi asosida kelajakni bunyod etishda yoshlarning o‘rni, maqsadlari va imkoniyatlari haqida fikr yuritish. O‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur, daxldorlik, fuqarolik mas‘uliyati, bag‘rikenglik, tashabbuskorlik va kelajak uchun mas‘uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Mustaqillik - men uchun...”** - **“Mustaqillik men uchun nimani anglatadi?”** mavzusida esse yozing. Fikringizni tarixiy misol va shaxsiy kuzatuvlar bilan asoslang.
2. **“Yagona Vatan - yagona xalq”** - ushbu g‘oyaning mazmunini ochib beruvchi poster, infografika yoki raqamli taqdimot yarating.
3. **“Kelajak O‘zbekistonini men qanday tasavvur qilaman?”** - 2035-2040-yillardagi O‘zbekistonni tasavvur qilib, ta‘lim, texnologiya, ekologiya, iqtisodiyot yoki madaniyat yo‘nalishlaridan birida mini-loyiha ishlab chiqing.
4. **“Yosh fuqaroning pozitsiyasi”** - **“Mamlakat taraqqiyotida yoshlarning mas‘uliyati nimada?”** mavzusida fikrlar xaritasi tuzing va uni guruhda himoya qiling.
5. **“Bir muammo - uch yechim”** - yoshlar yoki mahallangiz uchun dolzarb bo‘lgan bitta muammoni tanlang, uning sabablarini aniqlang va kamida 3 ta amaliy yechim ishlab chiqing.
6. **“Yangi O‘zbekiston - mening nigohimda”** - mamlakat kelajagi haqida ijodiy loyiha yarating: “Muammo, g‘oya, yechim, kutiladigan natija” modeli asosida taqdim eting.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Mustaqillikning tarixiy va bugungi ahamiyatini tahlil qiladi, mamlakat taraqqiyotidagi o‘zgarishlarga turli nuqtayi nazardan baho beradi, muammolarni aniqlab, asoslangan xulosa chiqaradi.

- O'zbekistonning kelajagi, yoshlarning roli va jamiyat rivojiga oid yangi g'oyalar, loyihalar, poster, infografika va taqdimotlar yaratadi.
- O'z fikri va fuqarolik pozitsiyasini aniq, dalillarga tayangan holda ifodalaydi, munozarada faol ishtirok etadi, boshqalarning fikrini tinglaydi va hurmat qiladi.
- Guruh loyihalarida vazifalarni taqsimlaydi, turli fikrlarni birlashtiradi, umumiy qaror qabul qiladi va jamoaviy natija uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
- Yoshlar, ta'lim, ekologiya va jamiyat hayotiga oid muammolarni aniqlaydi, ularning sabablarini tahlil qiladi va amaliy yechimlar taklif etadi.
- Turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlaydi, saralaydi, ishonchliligini baholaydi va raqamli vositalardan ijodiy hamda maqsadli foydalanadi.

2-mavzu. Ustozga ehtirom - millatga ehtirom! (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. Ustoz va murabbiylarning shaxs, jamiyat va millat taraqqiyotidagi o'rnini, ularning bilim berish bilan birga yosh avlodning dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy fazilatlari va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi mas'uliyati haqida fikr yuritish. "Ustozga ehtirom - millatga ehtirom" g'oyasining mazmun-mohiyatini ochib berish. Ustozga hurmatni shunchaki odob qoidasi emas, balki ilm-ma'rifatni, inson qadriini va milliy taraqqiyotning asoslarini qadrlashning ifodasi sifatida anglash. Sharqona ustoz-shogird an'analari, buyuk allomalar va mutafakkirlar merosida ustozga bo'lgan ehtirom, ilm olish va ilmni avlodlardan avlodga yetkazish qadriyatlarini haqida tushuncha berish. Ularni zamonaviy ta'lim va kasbiy rivojlanish jarayonlari bilan bog'lash. O'qituvchi va murabbiylarning zamonaviy ilm-fan, texnologiya, kasb-hunar va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini egallashdagi o'rnini tahlil qilish. Ustoz mehnatini qadrlash, uning sha'ni, qadr-qimmati va mehnat huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishning ahamiyatini anglatish. Globallashuv va raqamli axborot makonida ustozning yoshlarni ishonchli axborotni tanlash, tanqidiy fikrlash, yolg'on va manipulyativ axborotni farqlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiq qolishga yo'naltirishdagi rolini yoritish. Ustoz-shogird munosabatlarida o'zaro hurmat, ishonch, mas'uliyat, halollik va hamkorlikning ahamiyatini ochib berish. O'quvchilarda ustozlarga samimiy minnatdorlik bildirish, ularning mehnatini qadrlash va o'z bilim hamda yutuqlari bilan ustozlar ishonchini oqlash mas'uliyatini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **"Menga yo'l ko'rsatgan ustoz"** - ta'lim va hayotingizda sizga ta'sir ko'rsatgan ustozning qanday fazilatlari siz uchun ibrat ekanini tahlil qiling.
2. **"Ustoz-shogird: kecha va bugun"** - an'anaviy ustoz-shogird munosabatlarini zamonaviy ta'lim bilan taqqoslab, o'xshash va farqli jihatlarni taqdimot yoki infografikada ko'rsating.
3. **"Bir savol - turli qarashlar"** - **"Ustozning jamiyatdagi obro'si nimaga bog'liq?"** savolini guruhlarda muhokama qiling va turli nuqtayi nazarlarni taqqoslab, umumiy xulosa chiqaring.
4. **"Ustoz va zamonaviy texnologiyalar"** - sun'iy intellekt, internet va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ustozning vazifasi qanday o'zgarishi mumkinligi haqida fikr-mulohaza yoki podkast ssenariysi tayyorlang.
5. **"Axborot xurujlari va ma'naviy immunitet"** - yoshlarni yolg'on axborot, manipulyatsiya va zararli g'oyalardan himoya qilishda ustozning rolini tahlil qiling va 5 ta amaliy tavsiya ishlab chiqing.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Esse, ochiq maktub, podkast, videorolik, infografika, “Ideal ustoz” modeli va boshqa ijodiy mahsulotlarni yaratish orqali o‘z g‘oyalarini yangicha ifodalaydi.
- O‘z fikrini aniq va dalillar asosida ifodalaydi, munozara va debatlarida faol qatnashadi, suhbatdoshining fikrini tinglaydi va unga hurmat bilan munosabat bildiradi.
- Guruhli muhokama, debat va loyiha ishlarida vazifalarni taqsimlaydi, turli fikrlarni uyg‘unlashtiradi va jamoaviy qaror qabul qiladi.
- Raqamli muhitdagi axborotni izlaydi, saralaydi va ishonchliligini baholaydi; yolg‘on axborot, manipulyatsiya va zararli kontentni farqlashga o‘rganadi.
- Zamonaviy texnologiyalar, internet va sun‘iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini anglaydi, ulardan maqsadli va mas’uliyatli foydalanish yo‘llarini taklif qiladi.
- Ta’lim, ustoz-shogird munosabatlari va axborot xavfsizligiga oid muammolarni aniqlaydi, amaliy yechimlar ishlab chiqadi.

3-mavzu. Mustaqillik timsollari - milliy g‘urur va o‘zligimiz! (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. Mustaqillikning xalqimizning milliy o‘zligini namoyon etish, davlat suverenitetini mustahkamlash va mamlakatning o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilashidagi o‘rnini tahlil qilish. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi, Davlat madhiyasi va Davlat tilini milliy o‘zlik, davlat mustaqilligi va xalqimizning tarixiy-madaniy merosini ifodalovchi muhim timsollar sifatida o‘rganish. Ularning mazmuni, ramziy ma’nosi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tahliliy yondashuv asosida anglash. Davlat ramzlarining huquqiy maqomi, ulardan foydalanish va ularni e’zozlash bilan bog‘liq mas’uliyatni tushuntirish. Milliy timsollarni bilish va qadrlash orqali tarixiy xotira va avlodlar davomiyligini ta’minlashning ahamiyatini ochib berish. Globallashuv va raqamli axborot makonida milliy timsollarning davlat va xalqning o‘ziga xosligini namoyon etishdagi o‘rnini tahlil qilish. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda davlat ramzlariga munosabatda media madaniyat, axborot mas’uliyati va raqamli etikaga rioya qilish zarurligini anglatish. Davlat ramzlarini xalqaro maydonda O‘zbekistonning suvereniteti, milliy o‘zligi va davlat nufuzini ifodalovchi timsollar sifatida anglash. O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini yuksaltirishda yoshlarning bilim, madaniyat, sport, ilm-fan va innovatsiyalar orqali qo‘shadigan hissasi haqida fikr yuritish. O‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik, bag‘rikenglik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini mustahkamlash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Timsollar nimani anglatadi?”** - Davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi va Davlat tilining milliy o‘zlikni ifodalashdagi o‘rnini tahlil qilib, infografika yarating.
2. **“Men uchun Vatan timsoli”** - **“Milliy g‘urur men uchun nimani anglatadi?”** mavzusida esse yozing va fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
3. **“Agar men dizayner bo‘lsam...”** - O‘zbekistonning milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ramziy kompozitsiya yarating va undagi har bir elementni asoslang.
4. **“Raqamli makonda milliy timsollar”** - ijtimoiy tarmoqlarda davlat ramzlaridan foydalanishda amal qilinishi lozim bo‘lgan 5 ta media va raqamli etika qoidasini ishlab chiqing.
5. **“Milliy o‘zlik va globallashuv”** - **“Globallashuv milliy o‘zligimizni mustahkamlaydimi yoki zaiflashtiradimi?”** mavzusida guruhlar o‘rtasida munozara tashkil eting.
6. **“Yosh fuqaroning pozitsiyasi”** - davlat ramzlarini hurmat qilishni kundalik hayotda qanday namoyon etish mumkinligi haqida **“5 amaliy qadam”** loyihasini ishlab chiqing.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Davlat ramzlarining mazmuni, tarixiy va huquqiy ahamiyatini tahlil qiladi, ularning milliy o'zlik va davlat suverenitetidagi o'rnini asoslaydi.
- Davlat ramzlari va milliy o'zlik mavzusida infografika, raqamli poster, videorolik, taqdimot va kreativ kompozitsiyalar yaratadi.
- O'z fuqarolik pozitsiyasini aniq va dalillarga tayangan holda ifodalaydi, munozara va taqdimotlarda faol ishtirok etadi, turli fikrlarni tinglaydi va hurmat qiladi.
- Guruh loyihalari va munozaralarda vazifalarni taqsimlaydi, umumiy fikrga keladi va jamoaviy natija uchun mas'uliyatni his qiladi.
- Davlat ramzlari haqidagi ma'lumotlarni turli manbalardan izlaydi, ularning ishonchliligini baholaydi va raqamli makonda axborotdan mas'uliyatli foydalanadi.
- Davlat ramzlari va milliy qadriyatlarni yoritishda raqamli vositalardan samarali foydalanadi, ijtimoiy tarmoqlarda raqamli etika va media madaniyat talablariga rioya qiladi.

4-mavzu. Huquqiy madaniyat - xavfsiz kelajak (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. Huquqiy madaniyatning mazmuni, inson huquq va erkinliklarini bilish, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni anglashdan iborat ekanini tushuntirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi haqida yoshga mos tushuncha berish. Yoshlarning ta'lim olish, mehnat qilish, fikr bildirish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish kabi huquqlari bilan bir qatorda qonunlarga rioya qilish, boshqalarning huquq va qadr-qimmatini hurmat qilish kabi majburiyatlarini anglatish. Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kuchli parollardan foydalanish, fishing va shubhali havolalardan ehtiyot bo'lish, yolg'on axborotni farqlash hamda internetdan mas'uliyatli foydalanish qoidalarini o'rgatish. O'quvchilarda huquqiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas'uliyati, raqamli xavfsizlik va qonuniy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish orqali huquqiy madaniyatni xavfsiz va barqaror kelajakning muhim omili sifatida anglashga yo'naltirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **"Huquqim va burchim"** - yoshlarning asosiy huquq va majburiyatlarini ikki ustunli jadval yoki infografika shaklida ifodalang.
2. **"Huquqiy vaziyat"** - maktab, jamoat joyi yoki internetdagi huquqiy vaziyatni tanlang. Muammoni aniqlang, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilang hamda qonuniy yechim taklif qiling.
3. **"Raqamli xavfsizlik qalqoni"** - internetdagi xavflardan himoyalashning 7 ta muhim qoidasini ishlab chiqing va kreativ poster yarating.
4. **"Fishingni aniqlang"** - shubhali xabar, havola yoki elektron xatning belgilarini aniqlang va uni xavfsiz tekshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqing.
5. **"Internetdagi izim"** - ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan fikr, joylashtirilgan rasm yoki video qanday huquqiy va axloqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tahlil qiling.
6. **"Bir vaziyat - uch qaror"** - huquqiy muammoli vaziyat uchun uch xil yechim taklif qiling va ulardan qaysi biri qonuniy va mas'uliyatli ekanini asoslang.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Huquqiy va raqamli vaziyatlarni tahlil qiladi, fakt va fikrni farqlaydi, xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlarini baholaydi.
- Huquqiy muammoni aniqlaydi, qonuniy yechimlarning bir nechta variantini ishlab chiqadi va eng maqbul qarorni asoslaydi.
- Huquqiy madaniyat va kiberxavfsizlikka oid poster, infografika, kodeks, taqdimot va boshqa ijodiy mahsulotlar yaratadi.
- O'z huquqiy pozitsiyasini aniq va dalillarga tayangan holda ifodalaydi, munozarada fikrini himoya qiladi va boshqalarning qarashlarini hurmat qiladi.
- Guruhli topshiriqlarda vazifalarni taqsimlaydi, umumiy qaror ishlab chiqadi va jamoaviy natija uchun mas'uliyatni his qiladi.
- Internetdagi axborotning ishonchliligini baholaydi, soxta xabar, fishing va manipulyativ kontentni aniqlashga o'rganadi.

5-mavzu. Jasorat - vatan himoyasi burchimiz (3-soat)

Kelajak soati mazmuni. Vatan himoyasi, harbiy burch, jasorat, matonat va fidoyilik tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berish. Vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlash har bir fuqaroning huquq va majburiyatlari bilan bog'liqligini anglatish. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mamlakat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni haqida ma'lumot berish. 14-yanvar - Vatan himoyachilari kunining mazmuni va jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoritish. Vatan himoyasi faqat harbiy xizmat bilan cheklanmasligi, balki qonunlarga rioya qilish, fuqarolik mas'uliyatini his etish, ogohlik, intizom, bilim va kasbiy salohiyatni rivojlantirish orqali ham namoyon bo'lishini tushuntirish. Zamonaviy tahdidlar, axborot xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarda fuqarolarning ogohligi hamda mas'uliyatining ahamiyatini hayotiy misollar asosida tahlil qilish. Yoshlarning o'z xavfsizligi va jamiyat xavfsizligiga mas'uliyatli munosabatini shakllantirish. Vatan himoyasi yo'lida jasorat ko'rsatgan harbiy xizmatchilar va milliy qahramonlarning hayoti va faoliyatidan ibrat olish. Jismoniy va ma'naviy tayyorgarlik, sog'lom turmush tarzi, iroda va o'zini boshqarishning insonning hayotiy maqsadlariga erishish hamda Vatan oldidagi mas'uliyatini ado etishdagi ahamiyatini anglash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Jasorat nima?”** - jasorat, matonat va fidoyilik tushunchalarini izohlang. Ularning kundalik hayotdagi namoyon bo'lishiga 3 ta misol keltiring.
2. **“Vatan himoyasi - mening qarashim”** - Vatan himoyasi tushunchasini faqat harbiy xizmat bilan cheklamasdan, fuqaroning kundalik mas'uliyati nuqtayi nazaridan tahlil qilib, esse yozing.
3. **“Zamonaviy xavfsizlik”** - bugungi yoshlar duch kelishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlang va ulardan himoyalaniish bo'yicha “Xavfsizlikning 7 qoidasi”ni ishlab chiqing.
4. **“Vatan himoyachisi modeli”** - zamonaviy Vatan himoyachisiga xos bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va fazilatlarni aniqlab, model yoki infografika yarating.
5. **“Munozara: Vatan himoyasi nimadan boshlanadi?”** - guruhlarda “Vatan himoyasi - harbiy xizmatdan boshlanadi” va “Vatan himoyasi - fuqarolik mas'uliyatidan boshlanadi” fikrlarini muhokama qiling va dalillar bilan himoya qiling.
6. **“14-yanvar: jasorat sabog'i”** - Vatan himoyachilari kunining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ochib beruvchi videorolik, podkast, plakat yoki taqdimot tayyorlang.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Vatan himoyasi, xavfsizlik va fuqarolik mas'uliyatiga oid tushunchalarni tahlil qiladi, zamonaviy tahdidlarning sabab va oqibatlarini baholaydi.
- Xavfli va favqulodda vaziyatlarni tahlil qilib, xavfsiz va mas'uliyatli harakat variantlarini ishlab chiqadi.
- "Vatan himoyachisi modeli", videorolik, podkast, infografika, plakat va boshqa ijodiy loyihalarni yaratadi.
- O'z fikrini aniq, mantiqiy va dalillarga tayangan holda ifodalaydi, munozara va taqdimotlarda faol ishtirok etadi.
- Guruh loyihalarida vazifalarni taqsimlaydi, o'zaro fikr almashadi va umumiy maqsad sari jamoa bilan ishlaydi.
- Xavfsizlikka oid axborotlarni tanqidiy baholaydi, axborot xurujlari va ishonchsiz manbalarni farqlaydi, raqamli muhitda mas'uliyatli xulq-atvorni qo'llaydi.

6-mavzu. Buyuk ajdodlar merosi - ma'naviy tayanchimiz (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti hamda ijodini o'rganish orqali buyuk ajdodlarimizning milliy va jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini anglash. "Buyuk ajdodlar merosi - ma'naviy tayanchimiz" g'oyasining mazmunini ochib berish va ajdodlar merosining bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil qilish. Alisher Navoiyning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida aks etgan insonparvarlik, adolat, ilm-ma'rifat, ezgulik, vatanparvarlik va ona tiliga hurmat g'oyalari hayotiy qadriyatlar bilan bog'lash. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari orqali uning bilimga intilishi, qat'iyati, jasorati, Vatanga muhabbati, tabiatga e'tibori va murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish fazilatlarini anglash. Navoiy va Bobur merosini tarixiy davr, bugungi jamiyat va yoshlarning hayotiy maqsadlari bilan bog'lab tahlil qilish. Ajdodlarimizning ilm, ijod, davlat boshqaruvi va bunyodkorlikdagi tajribasidan zamonaviy hayotda foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritish. Ajdodlar merosini o'rganish, asrash va targ'ib etishda yoshlarning mas'uliyatini anglatish. Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, ilmga intilish, mustaqil fikrlash va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **"Ajdodimdan olgan sabog'im"** - Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatidan o'zingiz uchun muhim bo'lgan bir fazilatni tanlang va uning bugungi hayotdagi ahamiyatini esse shaklida yoritib bering.
2. **"Navoiy va Bobur: ikki siymo - ikki maktab"** - ikki buyuk ajdodning hayoti, ijodi va fazilatlarini taqqoslab, Venn diagrammasi yoki taqqoslash jadvalini yarating.
3. **"Bugungi yoshlar uchun Navoiy saboqlari"** - Navoiyning insonparvarlik, adolat, ilm va tilga hurmat haqidagi qarashlaridan kelib chiqib, zamonaviy yoshlar uchun 5 ta hayotiy tavsiya ishlab chiqing.
4. **"Bobur bilan suhbat"** - Zahiriddin Muhammad Bobur bilan xayoliy intervyu tuzing. Unga kamida 7 ta savol bering va tarixiy ma'lumotlarga asoslangan javoblarni ishlab chiqing.
5. **"Ajdodlar merosi - raqamli makonda"** - Navoiy yoki Bobur hayoti va ijodini yoshlar orasida targ'ib qilish uchun ijtimoiy tarmoq posti, raqamli poster, podkast yoki qisqa videorolik konsepsiyasini ishlab chiqing.

6. **“Ajdodlarga munosib avlod”** - guruhda “Bugungi yosh qanday fazilatlarga ega bo‘lsa, ajdodlariga munosib avlod bo‘la oladi?” savoliga javob beruvchi “Yoshlar modeli”ni ishlab chiqing va himoya qiling.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Navoiy va Bobur merosidagi g‘oyalarni tarixiy davr va zamonaviy hayot bilan taqqoslaydi, ularning bugungi ahamiyatini tahlil qiladi va asoslangan xulosa chiqaradi.
- Esse, ochiq maktub, xayoliy intervyu, sahna ko‘rinishi, podkast, raqamli poster va loyiha kabi ijodiy mahsulotlar orqali o‘z g‘oyalarini yangicha ifodalaydi.
- O‘z fikrini mantiqiy va dalillarga tayangan holda ifodalaydi, taqdimot, suhbat va muhokamalarda faol qatnashadi hamda turli qarashlarni hurmat qiladi.
- Guruhli loyihalarda vazifalarni taqsimlaydi, o‘zaro fikr almashadi, umumiy qaror ishlab chiqadi va jamoaviy natija uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.
- Alisher Navoiy va Bobur hayoti hamda merosiga oid ma’lumotlarni turli manbalardan izlaydi, saralaydi, manbaning ishonchliligini baholaydi va dalillardan to‘g‘ri foydalanadi.
- Buyuk ajdodlar merosini targ‘ib qilishda raqamli vositalardan samarali foydalanadi, raqamli poster, podkast, videorolik va boshqa media mahsulotlar yaratadi.

7-mavzu. Qadriyatlar bebaho, ma’naviy xazinadir (3-soat)

Kelajak soati mazmuni. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning inson, oila va jamiyat hayotidagi o‘rnini anglash. “Qadriyatlar bebaho, ma’naviy xazinadir” g‘oyasini shaxsiy hayot, jamiyat taraqqiyoti va milliy o‘zlik bilan bog‘lab tahlil qilish. Oila, mahalla va jamiyatda shakllangan kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, mehr-oqibat, halollik, saxovat, mehmondo‘stlik va o‘zaro yordam kabi qadriyatlarning inson ma’naviy kamolotidagi ahamiyatini anglash. Navro‘zning tarixiy-madaniy mazmuni, uning yangilanish, ezgulik, hamjihatlik, saxovat, kechirimlilik va tabiatga e’tibor kabi g‘oyalarni mujassam etishini tahlil qilish. Navro‘z an‘analarining avlodlar davomiyligi va jamiyatdagi ahillikni mustahkamlashdagi o‘rnini baholash. Milliy qadriyatlarni shunchaki an‘analarni takrorlash emas, balki ularning mazmunini anglagan holda zamonaviy hayotda davom ettirish va rivojlantirish zarurligi haqida fikr yuritish. Milliy merosni zamonaviy innovatsiyalar, ijodkorlik va yoshlar tashabbuslari bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini izlash. Globallashtirish va raqamli axborot makonida milliy o‘zlikni saqlash, madaniy merosga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish, turli xalqlarning madaniyati va qadriyatlariga hurmat, bag‘rikenglik va ochiq fikrlilik bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy immunitet, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat, tashabbuskorlik va qadriyatlarni asrash hamda rivojlantirishga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Qadriyatlar mening hayotimda”** - siz uchun eng muhim bo‘lgan 3 ta qadriyatni tanlang va ularning shaxsiy hayotingiz hamda kelajagingizdagi ahamiyatini esse shaklida asoslang.
2. **“Navro‘z - yangilanish ramzi”** - Navro‘zning yangilanish, ezgulik va hamjihatlik g‘oyalarini aks ettiruvchi kreativ poster, infografika yoki kollaj yarating.
3. **“Qadriyatlar avloddan avlodga”** - oilangizdagi bir urf-odat yoki an‘anani o‘rganing. Uning kelib chiqishi, mazmuni va bugungi kundagi ahamiyati haqida taqdimot tayyorlang.

4. **“Men yaratgan Navro‘z”** - yoshlar uchun zamonaviy, mazmunli va ekologik jihatdan foydali Navro‘z tadbiri konsepsiyasini ishlab chiqing. Unda tadbir maqsadi, faoliyatlar va kutiladigan natijalarni ko‘rsating.
5. **“Qadriyatlar va globallashuv”** - “Globallashuv milliy qadriyatlarni yo‘qotadimi yoki ularni yangi shaklda rivojlantirish imkonini beradimi?” mavzusida munozara tashkil eting.
6. **“Bir qadriyat - bir tashabbus”** - mehr-oqibat, saxovat, ekologik madaniyat yoki mahalla birdamligi kabi qadriyatlardan birini tanlab, uni amalda namoyon etishga qaratilgan kichik ijtimoiy loyiha ishlab chiqing.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tahlil qiladi, an‘ana va zamonaviylik o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholaydi, globallashuvning qadriyatlarga ta‘siri haqida asoslangan xulosa chiqaradi.
- Navro‘z konsepsiyasi, kreativ poster, infografika, raqamli hikoya, ijtimoiy loyiha va boshqa yangi g‘oyalarni yaratadi.
- O‘z qarashlarini aniq va dalillar asosida ifodalaydi, munozara va taqdimotlarda faol ishtirok etadi, turli madaniy qarashlarni tinglaydi va hurmat qiladi.
- Guruhli loyihalarda vazifalarni taqsimlaydi, turli fikrlarni birlashtiradi va umumiy maqsad sari samarali ishlaydi.
- Milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlar orasida targ‘ib qilish va zamonaviy hayotga moslashtirish bilan bog‘liq muammolarga amaliy yechimlar ishlab chiqadi.
- Milliy meros va qadriyatlar haqidagi axborotni turli manbalardan izlaydi, uning ishonchliligini baholaydi va raqamli makonda mas‘uliyatli foydalanadi.

8-mavzu. Ajdodlar merosi - avlodlar iftixori va istiqboli (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. Buyuk ajdodlarimizning davlat boshqaruvi, ilm-fan, adabiyot, san‘at, me‘morchilik va hunarmandchilik rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganish hamda ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rnini anglash. “Ajdodlar merosi - avlodlar iftixori va istiqboli” g‘oyasining mazmun-mohiyatini tarixiy meros va bugungi taraqqiyot bilan bog‘lab tahlil qilish. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy, ma‘naviy, madaniy va me‘moriy merosning milliy o‘zlik, tarixiy xotira va milliy g‘ururni shakllantirishdagi ahamiyatini anglash. Tarixiy shaxslar va voqealarni o‘rganishda manbalarga xolis, tanqidiy va dalillarga asoslangan yondashish ko‘nikmasini rivojlantirish. Ajdodlar merosini faqat asrash bilan cheklanmay, undan ilmiy izlanish, innovatsiya, ijodkorlik va bunyodkorlik uchun ilhom manbai sifatida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash. “Merosni qabul qilish - uni rivojlantirish - kelajak uchun yangi qiymat yaratish” tamoyili asosida yoshlarning mas‘uliyatini shakllantirish. Globallashuv va raqamli axborot makonida tarixiy va milliy qadriyatlarni asrash, ishonchli manbalarni tanlash, soxta yoki biryozlama tarixiy ma‘lumotlarni farqlash hamda ma‘naviy immunitet va media savodxonlikni rivojlantirishning ahamiyatini anglash. Buyuk ajdodlarning ilmga intilish, mehnatsevarlik, jasorat, bunyodkorlik va Vatanga sadoqat kabi fazilatlarini zamonaviy hayot bilan bog‘lash. Yoshlarning ta‘lim, fan, texnologiya, madaniyat, tadbirkorlik va boshqa sohalaridagi yutuqlari orqali ajdodlar merosini davom ettirish va boyitish imkoniyatlari haqida fikr yuritish. O‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy g‘urur, tanqidiy va mustaqil fikrlash, ilmga intilish, fuqarolik mas‘uliyati, tashabbuskorlik va mamlakat kelajagiga daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Meros va mening kelajagim”** - buyuk ajdodlardan qolgan biror merosni tanlang va uning kelajak kasbingiz yoki faoliyatingiz bilan qanday bog‘lanishini esse shaklida yoritib bering.
2. **“Ajdodlar - innovatsiya manbai”** - ajdodlarimizning ilmiy yoki texnik g‘oyalaridan birini tanlab, uni zamonaviy texnologiyalar yordamida qanday rivojlantirish mumkinligini taklif qiling.
3. **“Tarixiy manbani tekshir”** - ajdodlardan biri haqida turli manbalardan ma’lumot to‘plang. Ularning ishonchliligini taqqoslang va qaysi ma’lumotlar dalil bilan tasdiqlanganini aniqlang.
4. **“Ajdodlar merosi - raqamli makonda”** - tanlangan tarixiy shaxs yoki merosni targ‘ib qilish uchun qisqa videorolik, podkast, raqamli poster yoki ijtimoiy tarmoq loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqing.
5. **“Merosni boyitish”** - kelajak avlodga qanday yangi ilmiy, madaniy yoki ijtimoiy meros qoldirish mumkinligi haqida jamoaviy loyiha ishlab chiqing.
6. **“Iftixordan mas’uliyatga”** - “Ajdodlar bilan faxrlanishning o‘zi yetarli?” mavzusida munozara tashkil eting va o‘z pozitsiyangizni tarixiy hamda zamonaviy misollar bilan asoslang.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- Tarixiy ma’lumotlarni turli manbalar asosida tahlil qiladi, fakt va fikrni farqlaydi, ishonchli axborotni ajratadi va xulosa chiqaradi.
- Ajdodlar merosini zamonaviy g‘oya, loyiha, texnologiya yoki yangi mahsulot yaratish bilan bog‘laydi.
- Raqamli manbalardan ma’lumot izlaydi, manbaning ishonchliligini baholaydi, soxta va biryozlama axborotni aniqlaydi.
- O‘z fikri va pozitsiyasini og‘zaki, yozma va raqamli shakllarda aniq, dalillarga tayangan holda ifodalaydi.
- Jamoaviy loyihalarda vazifalarni taqsimlaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi va umumiy natijaga mas’uliyat bilan hissa qo‘shadi.
- Tarixiy va madaniy merosni asrash, targ‘ib qilish yoki rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarga amaliy yechimlar taklif qiladi.

9-mavzu. O‘tmishdan saboq - xotiraga ehtirom (4-soat)

Kelajak soati mazmuni. Tarixiy xotira, inson qadri, tinchlik, minnatdorlik va mas’uliyat tushunchalarining mazmunini ochib berish. 9-may - Xotira va qadrlash kunining tarixiy va ma’naviy ahamiyatini anglash, xotira orqali o‘tmish voqealarini tushunish va ulardan bugungi hayot uchun xulosa chiqarish. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xalqining front va front ortidagi jasorati, fidoyiligi, mehnati, insonparvarligi va birdamligi haqida tarixiy dalillar asosida ma’lumot berish. Urush yillaridagi murakkab sharoit, insonlarning bir-biriga ko‘rsatgan yordami va bugungi avlod uchun qoldirgan saboqlarini tahlil qilish. Urush qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari va tinchlik yo‘lida xizmat qilgan insonlarning hayot yo‘lini o‘rganish orqali inson qadri e‘zozlash, minnatdorlik bildirish va avlodlar xotirasini asrash mas’uliyatini anglash. Keksalar va faxriylarni qadrlashning oilada, mahallada va jamiyatda namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash. Tinchlik va osoyishtalikning inson va jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini tahlil qilish. Zamonaviy dunyoda tinchlikka tahdid soluvchi omillar haqida yoshga mos misollar asosida fikr yuritish hamda tinchlikni qadrlash, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va mas’uliyatli fuqarolik xulqining ahamiyatini anglash. Tarixiy xotirani saqlashning milliy o‘zlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishdagi o‘rnini tushuntirish. O‘tmish voqealariga manbalar va tarixiy dalillar asosida xolis yondashish, turli ma’lumotlarni tahlil qilish va ishonchli xulosaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quvchilarda “Xotirani asrash - faqat o‘tmishni eslash emas, balki

kelajak uchun mas'uliyatni anglashdir" degan tushunchani shakllantirish; tinchlikni qadrlash va asrashga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Esse** - **“O'tmishdan saboq - kelajak uchun mas'uliyat”**. Tarixiy xotira, tinchlik va inson qadrlash bugungi hayotdagi ahamiyati haqida o'z fikrini dalillar bilan yoritish.
2. **Intervyu** - **“Xotira bizga nimani o'rgatadi?”**. Katta avlod vakili bilan suhbat o'tkazib, uning hayotiy tajribasi, tinchlik haqidagi qarashlari va yoshlarga bergan saboqlarini yozib olish.
3. **Podkast yoki videolavha** - **“Tinchlikning qadri”**. Tinchlikning inson hayotidagi ahamiyati haqida 2-4 daqiqalik audio yoki videolavha tayyorlash.
4. **Munozara** - **“Xotirani asrash - kelajakni asrashdir”**. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlovchi yoki savol ostiga qo'yuvchi dalillarni tayyorlash va o'z pozitsiyasini asoslash.
5. **“Tarixiy manbani tahlil qil”**. Xotira va urush yillariga oid ikki xil manbani taqqoslash, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda qaysi ma'lumotlar dalil bilan tasdiqlanganini ko'rsatish.
6. **“Tinchlik uchun mening hissam”**. Maktab, oila va jamiyatda tinchlik, do'stlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladigan 5 ta amaliy taklif ishlab chiqish.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

- 9-may - Xotira va qadrlash kunining mazmunini anglaydi, urush yillari tarixini va O'zbekiston xalqining hissasini tarixiy dalillar asosida tushuntiradi.
- Tarixiy voqea va manbalarni tahlil qiladi, turli ma'lumotlarni taqqoslaydi, fakt va fikrni farqlaydi hamda asoslangan xulosa chiqaradi.
- Tarixiy ma'lumotlarni turli manbalardan izlaydi, ularning ishonchliligini baholaydi va axborotni tanqidiy saralaydi.
- Intervyu, munozara, taqdimot va suhbatlarda o'z fikrini aniq, mantiqiy va hurmat bilan ifodalaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi.
- Jamoaviy loyihalarda vazifalarni taqsimlaydi, o'zaro fikr almashadi va umumiy natija uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
- Tarixiy xotira, tinchlik va inson qadri haqidagi g'oyalarni esse, videolavha, infografika, maktub yoki loyiha orqali original tarzda ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-139-son, 2008-yil 7-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni. 2001-yil 11-may.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. 1989-yil 21-oktabr.
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni. 1991-yil 18-noyabr.
7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonuni. 1992-yil 2-iyul.
8. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni. 1992-yil 10-dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori. 2019-yil 31-dekabr.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 34-son qarori. 2026-yil 28-yanvar.
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kelajak soati" darslarini o'tkazish konsepsiyasi". – Toshkent, 2026.
15. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari. – Toshkent.

II. Ilmiy va metodik adabiyotlar

16. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
17. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror". – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi".
18. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi".
19. Amir Temur. "Temur tuzuklari". – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
20. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. "Pedagogika". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2011.
21. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". – Toshkent: "Iste'dod", 2008.

22. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. "Pedagogika". – Toshkent: "O'qituvchi", 2008.
23. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
24. Tolipov O., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". – Toshkent: "Fan", 2006.
25. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toshkent: "Sharq", 2002.

III. Xorijiy adabiyotlar

1. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. – New York: United Nations, 2015.
2. Council of Europe. *Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Volume 1: Context, Concepts and Model*. – Strasbourg: Council of Europe, 2018.
3. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (eds.). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy*. – New York: Longman, 2001.
4. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. *The Impact of Enhancing Students' Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions*. – *Child Development*, 2011.
6. World Health Organization. *Skills for Health: Skills-Based Health Education Including Life Skills*. – Geneva: World Health Organization, 2003.

IV. Elektron ta'lim resurslari

32. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi – LexUZ. – <https://lex.uz>
33. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti.
34. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. – <https://gov.uz>
35. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. – <https://my.gov.uz>
36. Ziyonet ta'lim portali. – <https://www.ziyonet.uz>
37. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron kutubxonasi. – <https://e-base.natlib.uz>
38. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy veb-sayti. – <https://www.un.org>
39. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi. – <https://uzbekistan.un.org>
40. UNESCO rasmiy veb-sayti. – <https://www.unesco.org>
41. UNESCO Digital Library. – <https://unesdoc.unesco.org>
42. UNICEF rasmiy veb-sayti. – <https://www.unicef.org>
43. OECD rasmiy veb-sayti. – <https://www.oecd.org>
44. OECD Learning Compass 2030. – <https://www.oecd.org/en/data/tools/oecd-learning-compass-2030.html>